

8 dekabr- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

“Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” nomli bayram ssenariysi

Tadbir o‘tkazilayotgan joy mavzuga mos bezatilgan bo‘ladi. Konstitutsiya moddalaridan yosh avlodga tegishli punktlari lavha sifatida yozilib, devorlarga ilingan bo‘ladi. Vatan haqidagi qo‘shiqlar taralib turadi.

Sahnaga 2 nafar boshlovchi chiqadi.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, aziz mehmonlar!

8 dekabr - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunga bag‘ishlangan “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” deb nomlangan tadbirimizga xush kelibsiz. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabr kuni Respublika Oliy Majlisi XII - chaqiriq XI - sessiyasida qabul qilingan. Konstitutsiyamiz 6 ta bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo‘lib, ularning barchasida adolat ustuvordir, ya’ni - Respublikamiz fuqarolarining, o‘smirlarning va kichik yoshdagi bolajonlarning huquq va burchlari aniq belgilab berilgan.

2-boshlovchi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o‘zbek xalqining tarixi, madaniy merosi, milliy an‘analari, qadriyatlari, azaliy udumlari, ildizlariga tayanilgan jahon tajribasi, umume’tirof etilgan xalqaro huquqiy normalar, qoidalar bilan hamohang tarzda yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi. Barcha qatnashchilar tik turib, unga jo‘r bo‘ladi.

Sahnaga 5 nafar o‘quvchilar chiqadilar. Konstitutsiyaga bag‘ishlangan she‘rlar o‘qiydilar, ma’lumotlar keltiradilar.

1-o‘quvchi:

Qomusimni bugun bilmoq istadim,
Har moddasin dilga solmoq istadim.
Qomus erur qonunlarning to‘plami,
Qonunlarni dildan tuymoq istadim.

2-o‘quvchi:

Qomus berdi huquqimni, burchimni,
Shon-shuhrati oshsin doim yurtimning.
Qonunlarni agar yaxshi o‘rgansam,
Albat yetar, qayga cho‘z sam qo‘limni.

3-o‘quvchi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi erkin va ozod shaxsni, barkamol insonni istiqbol g‘oyasi asosida kamol toptirishning, huquqiy demokratik davlat qurishning, jamiyat va shaxs, ular orasidagi uyg‘unlik, mutanosiblikni ta’minlashning huquqiy asosidir.

4-o‘quvchi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi huquqiy me‘yorlarga tayangan qonunlar majmuasi bolib, unda muqaddas ona tilimiz, Vatanimiz sarhadlari, madaniyati, mustaqil

yurtimiz olib borayotgan odilona davlat siyosati, har bir diyorimiz fuqarosining huquq va burchlari o'z aksini topgan.

5-o'quvchi: - Jumladan, Qomusimizda: "O'zbekiston - suveren mustaqil davlat". Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi», deb belgilab qo'yilgan.

Amu bilan Sirdaryodan
Kamol topgan o'zbekimiz.
O'z erkiga, huquqiga
Ega bo'lgan o'zbekimiz.

Vatan haqida qo'shiq ijro etiladi. Sahnaga boshlovchilar chiqadilar.Ular Qomusda belgilangan moddalardan misollar aytadilar.

1-boshlovchi: : O'zbekiston Respublikasi demokratik va umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra, inson,uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oily qadriyat hisoblanadi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida ifoda etilgan.

Shu boisdan Qomusimiz
Bizlar uchun tabarruk.
Yuraklarga yaqin erur
Bizlar uchun u suyuq.

2-boshlovchi: Davlat hokimiyatini tashkil etishda qonuniylik prinsipiga qat'iy amal qilinadi. Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Bir o'quvchi davraga O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'ini ko'tarib kiradi:

Boshim uzra hilpiraydi bayrog
Senga boqsam, chaqnar ko'zi qarog'im

Sahnaga o'quvchilar chiqib, Bayroq ranglariga, unda aks etgan yulduzlarga o'z kiyimlari, shunga mos taqib olgan belgilari asosida ta'rif beradilar.

1-o'quvchi: Men - moviy rang bo'laman, zamin osmonining parchasi. Bu - olamda tinchlik bo'lsin, deganim.

2-o'quvchi: Men - qizil rangdirman. Bamisoli tomirlardan oqqan qondirman. Hammani Vatan bayrog'i ostida yashashga, mehnat qilishga, kurashishga chaqiraman.

3-o'quvchi: Men - oq rangman. O'zim ham oq, ko'nglim ham oq, qilar ishim esa pok, elga doim oq yo'l tilayman.

4-o'quvchi: Men - yashil rangman. Yashillik yasharish, yashnatish, kelajakka ishonch degani, nonu-nasiba, sof havo, sog'u-omonlik degani.

5-o'quvchi: - Oymomoman, oymomo, ertaklarga boy momo. Niyatim - odamlarga to'kinlik tilab, O'zbekiston sharafini olam aro yoyish.

6-o'quvchi: 12 yulduz - 12 oymiz, jamlasangiz, bir yilga jomiz. Oyu quyosh bilan harakatdamiz. Kim qanday yashashini hech ikkilanmay baholaymiz.

Bir o'quvchi davraga O'zbekiston Respublikasining Davlat Gerbini tasvirini ko'tarib kiradi:

Gerbimizda tog'lar bor,
Daryolar bor, bo'g'lar bor
So'l tomoni – bug'doyzor,
O'ng tomoni – paxtazor.

Chambarakka o'ralgan
Vodiy uzra quyosh bor.
Hurligimizning ramzi
Humo degan qushi bor.

O'quvchilar chiqib, Gerbga undagi tasvirlar bo'yicha kiyimlar va shunga mos belgilar asosida ta'rif beradilar.

1-o'quvchi: Men baxt qushi Xumoman. Yurtingiz ertaklardagi jannatga o'xshaydi. Shu bois o'lkangiz sari uchib keldim.

2-o'quvchi: Men Gerbda non-nasiba, qut-baraka ramzi bo'lib o'rin olgan boshloqlarman.

3-o'quvchi: Bizlar - oppoq paxtalar, Vatanning milliy boyligi, ishonch yorlig'idirmiz.

4-o'quvchi: Bu yurt - mening yurtim, o'z zarrin nurlarim bilan har tong baxt eshiklarini ochaman.

5-o'quvchi: - Amu va Sirdaryo bir tan, bizlar esa bir jonmiz, tomirlardagi qonmiz.

O'quvchi qizlar tomonidan "Lazgi" raqsi ijro etiladi.

Sahnaga 4 nafar o'quvchi chiqadi.

1-o'quvchi: 41-moddada: "Har kim bilim olish huquqiga egadir", deb yozib qo'yilgan. Demak, biz bu huquqdan foydalanib, har kuni maktab quchog'iga o'tlanamiz.

2-o'quvchi: 40-modda: "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega".

3-o'quvchi: 49-modda: "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy merosini avaylab-asrashga majburdir. Chunki Madaniy yodgorliklar davlat muhofazasidir".

4-o'quvchi: 50-modda: "Fuqarolar atrof tabiiy muhitiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdir".

Vatan mavzuidagi qo'shiq raqsi bilan ijro etiladi.

1-boshlovchi: Konstitutsiyamizning har bir moddasini chuqur bilish, unga rioya qilish har birimizning burchimizdir.

2-boshlovchi: - Chunki chindan ham har bir demokratik va mustaqil davlatda Konstitutsiya xalqning bosh himoyachisi sanaladi. U fuqarolarni har qanday ichki va tashqi tahdidlardan, qonunbuzarliklardan, adolatsizliklardan asraydi, ularning tinch va farovon yashashlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

1-boshlovchi: - Qomusimiz yillar osha xalqimiz uchun ishonch, najot, faxr, iftixor namunasi bo'lib qolsin!

2-boshlovchi: Shu bilan qomusimizga bag'ishlangan tadbirimiz tugadi. Hammangizni Asosiy Qonunimiz – Konstitutsiya bayrami bilan muborakbod etamiz!

Tadbir soʻngida Vatan haqida qoʻshiq yangraydi.